ANDIJON VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

# ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-DEKABR*

Sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: 74-228-30-42

# Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022-yil yanvar-dekabr)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 54 122,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 122,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (97,7 %)ni tashkil etdi.







***B**–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 22,2 % ga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 16,3% ga va Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda 46,5 % ga o’sish kuzatildi.

Shuningdek, Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishning 0,7 % kamayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-dekabr oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 292,8 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi**
*yil boshidan, % da*







## Ishlab chiqaradigan sanoat




2022- yilning yanvar-dekabr oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52 903,1 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 122,2 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**

*yil boshidan, % da*







## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 234 519 dona yengil avtomobil ishlab chiqarilib (2021- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 143,4 % ga ko‘paygan), 19,9 ming tonna neft (103,1 %), yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi. va 2 813,0 tonna Tozalanmagan paxta yog‘i (33,0 %), 53 467,0 tonna Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (87,6 %), 13 155,0 ming. litr 80 % dan etil spirti (100,3 %), 9,8 tonna Milliy non (yopgan non) (61,6 %) kamayish kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**Yengil avtomobillar**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Aroq**




**O‘simlik yog‘i (tozalanmagan)**




**Uzum vinosi**




**Paxtadan yigirilgan ip**



| 80% dan kam Bo‘lmagan etil spirti | Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o‘ralgan sim | Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar |
|---|---|---|










| Neft | Paxta chigiti | Paxta tolasi |
|---|---|---|










## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yengil avtomobillar,** dona | 234 519,0 | 163 524,0 | 70 995 |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** t. | 48 571,0 | 86 961,8 | -38 390,8 |
| **Aroq,** ming litr. | 822,5 | 627,0 | 195,5 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** ming t. | 121 770,0 | 137 944,7 | -16 174,7 |
| **Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi,** tonna. | 40 232,4 | 37 941,0 | 2 291,4 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalanmagan), t.** | 2 813,0 | 8 537,0 | -5 724,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar 143,4 % ga ko‘paydi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 101 617 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 143,0 %), 22 245 dona “Nexia T-250” (70,7 %), 87 105 dona “Lacetti-Gentra” (170,6 %), 14 464 dona “Spark” (145,9 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.

### Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati

*2022-yilning yanvar-dekabr oyida, dona*



## Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Etil spirti,** *ming l.* | 13 155,0 | 13 116,0 | 39,0 |
| **Uzum vinosi,** *ming l.* | 122,5 | 416,0 | -293,5 |
| **Urug‘lik paxta chigiti ,** *tonna.* | 5 305,9 | 12 912,9 | -7 607,0 |
| **Paxta linti,** *tonna.* | 3 965,7 | 6 518,7 | -2 553,0 |
| **Kalish ,** *ming dona.* | 9 350,0 | 6 381,0 | 2 969,0 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*2022- yilning yanvar-dekabr oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 802,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,5 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oyida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 46,5 % ga o‘sish kuzatildi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 802,3 | 568,8 | 233,5 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 81,9 | 75,2 | 6,7 |
| Elektr energiyasini sotish bo‘yicha xizmatlar, mlrd so‘m. | 451,1 | 357,3 | 93,8 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 123,8 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**

*yil boshidan, % da*




| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-dekabr | 2021- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar,** *mlrd.so'm* | 86,4 | 80,2 | 6,2 |
| **Oqava suvlarni shlami,** *mlrd.so'm* | 18,0 | 15,7 | 2,3 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar-** *mlrd.so'm* | 0,5 | 1,7 | -1,2 |

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 40 834,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 143,1 % ga ko'paygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 75,4 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2021-yil yanvar-dekabr oyida 0,2 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida to'g'ri kelib, 70,1 % ni, shuningdek, Andijon shahariga 4,8 % ni, Paxtaobod tumani 1,6 % ni, Xo'jaobod tumanida 5,9 % ni hamda Baliqchi tumani 2,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat (143,1 %) ga ko'paygan. Yuqori darajada o'sish ko'rsatkichi Asaka (147,2 %), Marhamat (125,0 %), Paxtaobod (144,5 %), Jalaquduq (193,5 %), Baliqchi (178,2 %), tumanlarida hamda Izboskan tumanida (178,8 %) ni qayd etildi.

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-dekabr oyida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6 108,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,3 % ni tashkil etdi.

# Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022-yilning yanvar-dekabr oyida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 40 834,7 | 100,0 | 143,1 |
| Andijon shahar | 1948,8 | 4,8 | 104,1 |
| Xonobod shahar | 638,7 | 1,6 | 117,6 |
| Andijon | 845,6 | 2,1 | 108,9 |
| Asaka | 28 613,5 | 70,1 | 147,2 |
| Baliqchi | 996,0 | 2,4 | 178,2 |
| Buloqboshi | 321,4 | 0,8 | 101,8 |
| Bo‘ston | 269,7 | 0,7 | 130,1 |
| Jalaquduq | 805,1 | 2,0 | 193,5 |
| Izboskan | 971,7 | 2,4 | 178,8 |
| Ulug‘nor | 363,0 | 0,9 | 118,8 |
| Marhamat | 373,7 | 0,9 | 125,0 |
| Oltinko‘l | 563,3 | 1,4 | 127,3 |
| Paxtaobod | 640,1 | 1,6 | 144,5 |
| Xo‘jaobod | 2 393,3 | 5,9 | 186,3 |
| Shahrixon | 571,2 | 1,4 | 90,3 |
| Qo‘rg‘ontepa | 519,5 | 1,3 | 113,8 |
| [illegible] | 6192,1 | 5,2 | 109,1 |

# Andijon viloyat hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022-yilning yanvar-dekabr oyida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 54 122,0 | 100,0 | 122,6 |
| Andijon shahar | 8 043,5 | 14,9 | 110,9 |
| Xonobod shahar | 2 685,9 | 5,0 | 105,4 |
| Andijon | 1 083,6 | 2,0 | 102,6 |
| Asaka | 29 417,4 | 54,4 | 146,5 |
| Baliqchi | 1 647,4 | 3,0 | 100,7 |
| Buloqboshi | 387,9 | 0,7 | 103,4 |
| | 444,8 | 0,8 | 103,7 |
| Jalaquduq | 1 100,4 | 2,0 | 109,9 |
| Izboskan | 1 212,1 | 2,2 | 101,4 |
| Ulug‘nor | 497,8 | 0,9 | 100,5 |
| Marhamat | 553,9 | 1,0 | 105,8 |
| Oltinko‘l | 841,8 | 1,6 | 101,1 |
| Paxtaobod | 717,2 | 1,3 | 127,3 |
| Xo‘jaobod | 2 231,5 | 4,1 | 123,3 |
| | 1 387,2 | 2,6 | 108,5 |
| Qo‘rg‘ontepa | 1869,6 | 3,5 | 111,1 |

## Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati *% da*




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Qo’rg’ontepa (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 111,1 %), Xo‘jaobod (123,3 %), Andijon sh (110,9 %), Paxtaobod (127,3 %) va Marhamat (105,8 %), Asaka (146,5 %) Shahrixon (108,5 %), tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

**Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Asaka tumanida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 54,4 % ni) hamda Andijon shahri (14,9 %), Xonobod shahri (5,0 %), Baliqchi (3,0 %), Qo‘rg‘ontepa (3,5 %) va Xo‘jaobod (4,1 %) shahar va tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Buloqboshi (0,7 %), Bo‘ston (0,8 %) hamda Ulug‘nor (1,0 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (85 590,4 ming so‘m), Xonobod shahar (60 357,0 ming so‘m) va Andijon shahrida (17 357,0 ming so‘m) tuman va shaharlarda o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (16 459,5 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 12 418,6 ming so‘m bo‘lgan holda, Asaka tumanida 83 251,3 ming so‘mni, Xo‘jaobod tumanida 20 685,2 ming so‘mni, Andijon shahrida 4 206,4 ming so‘mni, Xonobod shahrida 14 353,3 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022-yilning yanvar-dekabr oyida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Andijon viloyati | 16 459,5 | 12 418,6 |
| Andijon shahar | 17 361,3 | 4 206,4 |
| Xonobod shahar | 60 357,0 | 14 353,3 |
| Andijon | 3 913,3 | 3 053,8 |
| Asaka | 85 590,4 | 83 251,3 |
| Baliqchi | 7 874,6 | 4 760,9 |
| Buloqboshi | 2 612,3 | 2 164,5 |
| Bo‘ston | 5 891,7 | 3 572,3 |
| Jalaquduq | 5 692,8 | 4 165,0 |
| Izboskan | 4 887,4 | 3 918,1 |
| Ulug‘nor | 7 977,2 | 5 817,5 |
| Marhamat | 3 067,1 | 2 069,4 |
| Oltinko‘l | 4 503,8 | 3 014,1 |
| Paxtaobod | 3 550,5 | 3 169,0 |
| Xo‘jaobod | 19 286,8 | 20 685,2 |
| Shahrixon | 4 423,5 | 1 821,4 |
| Qo‘rg‘ontepa | 8 342,9 | 2 318,0 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2022-yilning yanvar-dekabr oyida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 077,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %) Oltinko‘l (80,3 %), Jalaquduq (46,3 %), Shahrixon (80,8 %), hamda Andijon (76,5 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Asaka tumani (2,6 %), Xonobod shahar (42,8 %) va Andijon shaharida (22,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
*(2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 9 887 dona sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 3 031 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 30,7 % i) Andijon shahriga, 1 012 tasi (10,2 %) Asaka tumaniga, 904 tasi (9,1 %) Andijon tumaniga, 724 tasi (7,3 %) Shahrixon tumaniga, 565 tasi (5,7 %) Xo’jaobod tumaniga, 462 tasi (4,7 %) Oltinko’l tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.




2022-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 1 062 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 157 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar hajmidagi ulushi 14,8 %) Andijon shahrida, 89 tasi (8,4 %) Asaka tumanida, 69 tasi (6,5 %) Shahrixon tumanida, 76 tasi (7,2 %) Xo‘jaobod tumanida, 136 tasi (12,8 %) Andijon tumanida tashkil etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari**

*2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari. joylashgan hududlar 8 taligida Asaka (1 012 ta), Andijon (904 ta), Shahrixon ( 724 ta), Xo‘jaobod ( 565 ta ), Oltinko‘l ( 462 ta ), Qo‘rg‘ontepa ( 397 ta) va Izboskan tumanlarida (373 ta) hamda Andijon shaharida (3031 ta) qayd etildi.







2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (365 ta), Baliqchi (518 ta), Buloqboshi (310 ta), Marhamat (342 ta), Paxtaobod (318 ta), Bo‘ston (222 ta) va Ulug‘nor tumanlarida (135 ta) hamda Xonobod shahrida (209 ta) faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar qayd etildi.

**Sanoat statistikasi bo’limi**

*Tel.: (74) 228-30-42*